



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI PEDAGOGIKA FAKULTETI
BOSHLANG'ICH TA'LIM VA SPORT TARBIYAVIY ISH YO'NALISHI II
BOSQICH 202-GURUH TALABASI JUMAYEVA YULDUZNING TARBIYAVIY
ISHLAR METODIKASI FANIDAN TAYYORLAGAN**

MUSTAQIL ISHI



Termiz – 2016

**MAVZU: OILA,MAKTAB,MAHALLA HAMKORLIGINING SHAXS
MANAVYATINI SHAKILLANTIRISHDAGI O'RNI**

REJA:

- 1.SHAXS MANAVYATINI SHAKILLANTIRISH**
- 2.OILANING SHAXS MANAVYATINI SHAKILLANTIRISHDAGI O'RNI**
- 3.MAKTABNING SHAXS MANAVYATINI SHAKILLANTIRISHDAGI O'RNI**
- 4.MAHALLANING SHAXS MANAVYATINI SHAKILLANTIRISHDAGI
O'RNI**

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avvallo manavyatga tarif beradigan bo'lsak MANAVYAT- insonning ruhiyatini, o'zligini anglashi, didi, farosati, adolat bilan razillikni, ezgulik bilan yomonlikni, go'zallik bilan xunlikni, vazminlik bilan johillikni ajrata bilish qobiliyati, aql-zakaovati, yuksak maqsad vag'oyalarni qo'ya bilish, ularni amalga oshirish uchun harakat qilish va intilish salohiyatidir.

I. A. Karimovning aytganidek manavyat –taqdirning ehsoni emas. Manavyat inson qalbida kamol topishi uchun u qalban va vijdonan aql va qo'l bilan mehnat qilishi kerak.

Manavyat jamiyatning millatning va yoki ayrim bir kishining ichki hayoti ruhiy kechinmalari aqliy qobilyati idrokini mujassamlashtiruvchi tushunchadir.

Shaxs manavyati belgilari, fazilatlari garchi shaxs manaviyligi mezonlari bilan uzviy bog'lanib ketsada, biroq undan farq qiladi. Shaxs manavyati mezonlari yuqorida takidlaganimizdek butun insoniyat, mamlakat, millat, xalq va kishilar taqdiri bilan ajralib turadi. Shaxs manavyati fazilatlari kishilarning kundalik hayot faoliyatlarida, oilada, ko'cha-ko'yda mahalla, jamoat joylari, mehnat jamoasidagi o'zaro munosabatlarida namoyon bo'ladigan barcha manaviy-axloqiy xatti-harakatlari o'z ichiga qamrab olib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin: imon, diyonat, vijdonlilik, mehr-shavqat, to'g'rilik, halollik, poklik, vofodorlik, mehnatsevarlik, uyat, andisha, hayolilik, or-nomus, muloyimlik, kamtarlik, o'zgalarning haqqiga hiyonat, qilmaslik, o'zaro xurmat, beva-bechoralarga, yetim-yesirlarga, muhtoj oilalarga yordam, boshqa millat vakillariga hurmat va boshqalarni o'z ichiga oladi.

O'z millatiga sadoqatli bo'lish millatparvarlik bilan hamohang tushunchadir. Millatparvarlik bu har bir inson uchun yuksak burch va

manaviy mezon sanaladi.O'z millatini sevmagan inson o'zini ham vatanini shu jumladan boshqa millatni ham seva olmaydi.

Millatparvarlik o'z millatining birligini mustahkamlash,o'z tili, o'z urf-odatlarini, ananalarini rivojlantirish,qadriyatlar va meroslarni ko'z qorachig'iday asrash,o'z millatining kelajagi uchun xizmat qiluvchi aql-zakovat intellektni,salohiyatni rivojlantirish va milliy tarbiyani amalga oshirish yo'lida fidoiy bo'lishdir. Insoniyat o'zi yaratgan manaviy borliqni yaxlit tarzda tarflashga hamma vaqt o'zida ehtiyoj sezgan.Biz mana shu xazinani ko'paytirish haqida fikr yuritsak ,hamma vaqt ziddiyatga duch kelamiz. Chunki bu antiqa,noyob va muqaddas xazina qanchalik sarflansa,shunchalik boyib ko'payib boradi. Shaxs manaviyatini rivojlantirishning omillari va vositalari ko'p. Shulardan biri farzandning ota-onaga va ota- onaning farzandga bo'lgan munosabatidir. Ota- onani qadirlash ularning beo'lchov beminnat xizmatiga bir umr sodiq bo'lish,duolarini olish bolalarning farzandlik burchidir. Bu milliy qadriyatlarimizdan eng muhim talablaridan biridir.Konsitutsiyamizning 66- moddasida qayd qilinishicha voyaga yetgan mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota- onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar.

Hadisi sharifda keltirilishicha "Qaysi bir musulmon farzandi savob umidi birla ertalab ota- onasini ziyorat qilsa ,alloh taolo unga jannatning ikkita eshigini ochadi . Bola ota- onasidan qaysi birini xafa qilsa, uni rozi qilmaguncha Alloh – taolo undan rozi bo'lmaydi".

" Ota- onaga itoat qilish- tangriga itoat qilishdir".Uni oldida gunoh qilish tangri oldida gunoh qilish bilan barobardir.

2.Prizident I.A.Karimov takidlaganidek ” Oilaning jamiyatdagi o’rni, tarbiyaviy axloqiy ahamiyati, qadr- qimmatini anglab yetmasdan oilaga millat manfati nuqtai nazaridan yondoshmasdan turib xalqchil mafkura yarata olmaymiz” deb takidlaydilar.Inson manavyatining shakillanishida oila ham juda kata o’ringa egadir.Oila- nikohga yoki tug’ushganlikga asoslangan kichik guruh. Uning a’zolari ro’zg’orining birligi, o’zaro yordami va manaviy mas’uliyati bilan bir-biriga bog’langan . Oila jamoa urug’chilik tuzumining yemirilishi bilan barqaror uyushma bo’lib yuzaga keldi. Oilada doimo ahillik, totuvlik bo’lishi lozim.Agar bu narsa bo’lmasa, oilaga putur yetadi.Uning majburiyatlari buziladi. Oila rasmiy tus olgandagina,er-xotin oldida, xotin eri oldida , ularning ikkovlari farzandlari oldida , farzandlari ota- onalari oldida masulyatli va burchli bo’ladilar. Oiladagi manavyat deyilganda er- xotin , ota – ona va bolalar o’rtasida o’zaro hurmat,mehr-muhabbat, shavqat, mehr- oqibat,odob – axloq, ta’lim-tarbiya va boshqa insoniy tuyg’ular ko’zda tutiladi. Oilaning birinchi vazifasi o’z nasl-nasabini davom ettirishdan, solih va soliha farzandlarni tarbiyalashdan, oila a’zolarining tirikchiligini, bo’sh vaqtini ko’ngilli o’tkazishdan iboratdir. Aholi soni ma’lum muayyan ko’rsatgichda bo’lib turishi uchun, olimlarning hisoblashicha, har 100 oilaga 260 ta bola to’g’ri kelishi kerak. Aniqrog’i,100 oiladan 60 tasi 3 tadan , 40 tasida 2 tadan bola bo’lishi lozim. Olimlarning hisoblariga ko’ra, agar har oila bittadan farzand ko’rsa, 8- avlodga kelib , ya’ni 200 yildan keyin bu xalq millat sifatida yo’q bo’lib ketishi mumkin ekan.

Malumki, oila jamiyatning birlamchi bo’g’inidir. Jmiyat ana shu bo’g’inlardan tashkil topadi. Lekin u shunchaki bo’g’in emas,tirik vujudlar ittifoqidir. Har bir tirik vujudganing o’zi alohida biro lam.

OILA-ota-ona va ularning bola- chaqalari,eng yaqin tug'ishganlaridan iborat kishilar guruhi, boshqacha aytganda, xonadondir. Oila odamlarning tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, manaviy munosabatlariga asoslangan ijtimoiy birligidir. Tabiiy munosabat deyilganda bola-chaqali bo'lish, iqtisodiy munosabat deyilganda mulkiy munosabatlar- uy-ro'zg'or,hovli- joy, boshpana; huquqiy munosabat deyilganda nikohni davlat yo'li bilan qayd etish nazarda tutiladi.

Oilaviy munosabatlar. Shaxsning shakillanishida uning kamol topishida oilaning va oilaviy munosabatlarning o'rni juda katta. Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa bo'lib, oilaning ichki ishlariga hech kim huda-behuda aralashishga haqli emas. Shu sababli oila muqaddas va daxlsiz hisoblanadi. Ramziy qilib aytsak, oila o'ziga xos kichik muxtor davlatdir. Lekin oila osmonda tushmaydi,oila jamiyat tashqarisida emas,uning tarkibidir. Oilaviy munosabatlar jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy va manaviy munosabatlar bilan belgilanadi hamda ular ta'sirida o'zgarib boraveradi.

Xalqimizda, nikoh eng, avvalo, Arshi a'loda o'qilur, keyin esa yerda, deb behuda aytilmagan.Ota-bobolarimizning azaliy tushunchalari bo'yicha, nikoh-ilohiy ahd, oila- muqaddas.Bola tarbiyasida otaning qattiqqo'lligi, onaning mehribonligi hal qiluvchi omillardandir.Oiladagi umumiy so'lom iqlim mehr-muhabbat, oqibat, o'zaro hurmat, tinch-totuvlik ota-onaning bilim saviyasi, iymon- etiqodliligi, pul va puldorlikga, moddiy va manaviy boylikka munosabati va shu kabi ko'pgina narsalarga bog'liq.

O'zbek oilasining o'ziga xos axloqiy mezonlari bor. Avvalo, ertalab barvaqt turish shart. Barvaqt turilgan kun ish, o'qishning unimli

bo'lishi hammamizga malum. Ikkinchidan, yuz-qo'l yuvmasdan hol-axvol so'ralmaydi, yuz-qo'l yuvilgandan keyin kichginalar kattalarga salom beradilar. Oila- millat parvozi uchun maydondir. Oilaga qadimdan juda kata e'tibor qaratilgan. Oila va jamiyat bir-biriga bog'liq bo'lib, jamiyatning o'zi ham oilalardan tashkil topgan. O'zbek oilasining dunyodagi boshqa oilalarga o'xshash tomonlari ko'p. Lekin o'ziga xos tomonlari ham mavjuddir.

Oilaning manaviy va huquqiy asoslari. Oilaning manaviy va huquqiy asoslari Konsitutsiyamizda belgilab qo'yilgan. Asosiy Qonunning 63-moddasida: "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega"-degan qoida mavjud. Oila huquqi-nikoh tuzish va nikohni bekor qilish tartibi va shartlari, er-xotin, ota-ona bilan bolalar o'rtasidagi shaxsiy va mulkiy munosabatlar; farzadlikka olish, vasiylik va homiylik, bola asrab olish tufayli kelib chiqadigan munosabatlar; fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish tarzini belgilaydigan huquqiy me'yorlar yig'indisidir. O'zbekiston Respublikasi oila huquqining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

_ oila jamiyat va davlat muhofazasida; barcha fuqarolar: jinsi, irqi, millati, dini ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'l nazar qonun oldida teng;

_ ayol bilan erkak oilada teng huquqga ega;

_ faqat yakka nikohlilikni tan olish va uni mustahkamlashda yordam berish;

_ ixtiyoriy va erkin nikoh;

_ davlat nazorati ostida nikohdan erkin ajralish;

-davlat otalik,onalik va bolalikni muhofaza etadi va ularning manfaatlarini har tomonlama himoya qiladi;

-bolalarni milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi ruhida tarbiyalash va hakazo.1998-yil 30-aprelda O'zbekiston Respublikasining "Oila kodeksi" qabul qilindi. Hozirgi ilmiy adabyotlarda oilaning manaviy asosi masalasida, shaxsning kamol topishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan bilim, san'at, arxitektura,milliy istiqlol mafkurasi kabi talay ma'navyat va ma'rifat xususida gapiriladi. Bolaning ma'naviy tarbiyasida oilaning ahamiyati muhimligi takidlanadi. Ota-onaning oiladagi moddiy, tashkiliy, tarbiyaviy va o'zaro shaxsiy masalalar yuzasidan bir-biri bilan bo'ladigan munosabatlari sof, samimiy, urning xotiniga, xotinning erga nisbattan o'zaro hurmati asosida qurilsagina, bunday oilada musaffo ma'naviy muhit va hamjihatlik vujudga keladi. Ayniqsa ota-ona munosabatidagi, ularning bir-biriga mehribonligi, farzandlariga bir xil muomalada bo'lishi kerak. Tjribali kishilar aytishicha, ota-onaning farzand oldidagi burchi nihoyatta masulyatli hisoblanishini ma'naviy jihatdan his qilish darkor . Farzandlarning kelajakda qanday ma'navyat egasi bo'lishi ko'p jihatdan ota-ona, u bergan tarbiyaga bog'liq .Hae biro ta-ona farzandi oldida o'z otalik, onalik burchini to'liq his etishi, unga javobgarligini ma'naviy jihatdan anglab yetishi lozim. Shulardan xulosa qilgan holda , "Sog'lom avlod" davlat dasturini nazarda tutadi.

Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota- onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar. Sharqda oilaviy munosabatlar ham asrlar davomida o'zida diniy,milliy,umuminsoniy madaniyatni shakillantirgani,har qanday sharoitda ham insoniy qadr-qimmatni ustivor bilgani,milliy axloq-odobga asoslanganligi bilan farqlanadi.

Sharq oilasiga xos xususiyat oilalarning mustahkamligi, kishilarning oilaviy hayotdan tashqarida yashashni tasavvur qila olmasligi, oilaparvarligi, oilada farzand tarbiyasining muhimligi, oilani muqaddas bilishida namoyon bo'ladi.

3. SHaxsning manviy shakillanishida maktabning alohida o'rni bor. Avvalo maktab so'zini oladigan bo'lsak maktab- arabcha- o'qish joyi, yozuv stoli, bo'lim, idora degan manolarni anglatadi. Maktab- o'qituvchi rahbarligida ta'lim oluvchilarga ta'lim beradigan va tarbiyaviy ishlar olib boriladigan o'quv-tarbiya muassasasi hisoblanadi. Insonni inson bo'lib kamol topishida, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishida maktabning, mahallaning, oilaning alohida o'rni bor. Prizedentimiz I.A.Karimov "Kasblar ichida eng ulug'i o'qituvchi va murabbiylik bo'lsa imoratlar ichida eng ulug'i maktabdir" –deb tarif beradi. Albatt insonning ta'lim –tarbiya oladigan dargohi bu maktabdir.

Insoniyat yaralibdiki, doim uyushib yashab kelgan. SHu tariqa qishloqlar, mahalallar shakillana brogan. O'zbek qishloqlarida turli marosim va to'ylarni o'tkazish uchun oqsoqollar muhim ro'l o'ynagan.

4. "O'rta Osiyoda va avvalo, O'zbekistonda mahalla kabi o'zini o'zi boshqaruvchi ijtimoiy tashkilotning noyob shakli azaldan mavjud bo'lgan va shu kungacha ham saqlanib qolgan,-degandi Prizedentimiz I.Karimov.- O'zbeklar uchun mahalla jamoa tushunchasidan ko'ra ko'proq manoni bildiradi". Mahallaning o'ziga xos turmush tarzi bo'lib, u yerda istiqomat qiluvchi kishilar kim bo'lishidan qati nazar uning qonun- qoidalarigabo'ysunadi, bir-birlariga yordam beradi, to'y- ma'raka, hasharida birga bo'ladi. SHu sababli mahallaning

turmush tarzi unda yashayotganlar tafakkurida o'ziga xos iz qoldirdi. Ayni paytda mahalla ko'pchilik uchun ma'naviy muhit hisoblanadi. Chunki bu yerda iborat bo'larli voqealar ham, ogohlantiruvchi voqealar ham sodir bo'ladi. Agar mahallada manaviy muhit yomon bo'lsa, u yerda turli bezorilar, jinoyatchiliklar, noqonuniy ishlar bilan shug'ullanuvchilar ko'payadi. Agar manaviy muhit yaxshi bo'lsa, buning teskarisi bo'ladi, ya'ni ilimli, iymonli, mehnatkash insonlar ko'payadi. Shu sababli manaviy muhit shaxsni ham, butun avlodni ham muayyan yo'nalishda shakllantiradi, tarbiyalaydi, ijobiy xislatlarni yuzaga chiqaradi, ularni inomaqul tasirlardan himoya qiladi. Manaviy muhit har qanday yutuq va kashfiyotlarning taqdirini belgilaydi; yo rivojlantiradi, yo unitilishiga mahkum etadi, yoki deformatsiya qilib, o'ziga moslashtiradi.

Har bir yosh avlodning ma'naviy yetuk, komil shaxs bo'lib voyaga yetishda musaffo havo, tabiat bilan birgalikda mahalla va oila muhiti juda kata rol o'ynaydi. Buyuk yunon olimi Demokritdan bir kishi kelib so'raydi:

-Hozirgi yoshlar to'risida nima deya olasiz?

-Hozirgi yoshlar o'z bilganlaridan qolmaydilar, ularda kattalarga hurmat, kichiklarga izzat yo'qolgan, mahmadona va o'zboshimcha bo'lib ketishgan. Buning oldini olish uchun oiladagi va mahalladagi tarbiyani kuchaytirish kerak,- deb javob bergan buyuk mutaffakir.

Demak mahalla kishilarning tarixan shakllangan, yagona maqsad bilan yashab, faoliyat ko'rsatadigan makoni hisoblanadi. U o'zbek xalqining turmush tarzi, ruhiyati, ijtimoiy hayotining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi, milliy ananalarini, urf-odatlarini, axloqiy-ma'naviy qadriyatlarini avloddan –avlodga yetkazuvchi muqaddas

maskan bo'lib kelgan. Mahalla insonlarning millati yoshi,jinsi, irqi,dini,tili,e'tiqodi,ijtimoiy kelib chiqishi,shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qati nazar ularni ezgulik yo'lida jipslashtiruvchi va birlashtiruvchi kata oila hisoblanadi. Bu oila insonlarning bir –biriga bo'lgan hurmati, muhabbati, mustahkam do'stligi asosida yashaydi, faoliyat ko'rsatadi.

Oila va mahalla har tomonlama bir-birlari bilan bog'liq. Zotan,mahalla oilalardan tashkil topadi. Farzadlar oila bag'rida kamol topgani kabi,oila ham mahalla ichida ravnaq topadi,nurli kelajak sari intiladi. Kerak bo'lsa,mahalla oilaning eng yaqin maslahatchisi, tog'day tayanchidir. SHarq xalqlari,chunonchi, o'zbek xalqi shu narsani biladi, teran ma'no-mazmunini yaxshi tushunadi. Darhaqiqat, sharq xalqlari uchun muhim xususiyat xursadchilik kunlari ham, boshga ish tushgan onlarda ham bir-biriga hamdard va hamnafas bo'lishdir. Insonlar o'rtasidagi bunday bog'liqlikva hamjihatlikning muhim vositasi- mahalladir.

Xulosa.Xulosa qilib shuni aytish mumkinki shaxsni har tomonlama rivojlantirish uni kamol toptirish uchun oilaning ham maktabning ham mahallaning ham o'rne beqiyosdir. Mamlakatimizda bolalar to'g'risida onalar haqida g'amxo'rlik qilish chinakkam davlat ahamiyatiga molik ishdur. " Jamikiyaxshi narsalar- bolalarga" shiori yanada barilla jaranglamogda.Keyengi yillarda mazkur masala yuzasidan qabul qilingan qarorlar fikrimizning isboti hisoblanadi. Ma'lumki,bola maktabga kelgunga qadar ham, maktabda o'qish davrida ham, asosan oilada tarbiyalanadi. Oila a'zolarining ma'naviy birligi yoshlarni har tomonlama kamol toptirishning dastlabki va asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Jamiyatning jadal rivojlanishi, faoliyat turlarining tobora murakkablashib borishi shaxs ongiga ko'rsatayotgan ko'rinmas tasirlarining kuchayishiga olib kelmoqda .Mana shunday sharoitda kishining mavjud bilimi, kasb-hunari, malakalari kamlik qilib qolmoqda. Eng avvalo, insonlarda oilada tarkib topgan did, farosat, aql, odob, ematsional madaniyatga muhtojlik sezilmoqda. Ota-onalarning o'ziga va bolalarga bo'lgan talabchanligi katta va kichiklarning o'zaro bir-birlarini tushunish, oila, maktab va jamoatchilikning bolalar tarbiyasi yuzasidan olib boriladigan muhim omillardandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.I.Karimov. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. T.:O'zbekiston,1996.**
- 2."O'zbekiston Respublikasi Konsitutsiyasi" T.: O'zbekiston. 2014.**
- 3.H.Ziyoyev. Istiqlol- ma'naviyat negizi. T.: Ma'naviyat,1999.**
- 4.A.Q.Munavvarov. Oila pedagogikasi.T.: "O'qituvchi"1994.**
- 5.V.Karimova.ota-ona maktabi- baxtli hayot kaliti.T.:2002.**
- 6.R.A.mavlonova, N.X.rahimqulova, K.A.Normurodova, K.O. Matnazarova." Tarbiyaviy ishlar metodikasi" darslik.Toshkent-2014.**
- 7.I.A.Karimov. Yuksak manavyat- yengilmas kuch.'O'zbekiston'.**